

Buxoro viloyati, Buxoro shahar, Buxoro ko'chasi 5-uyda joylashgan Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi tasarrufidagi "Yosh iste'dod" milliy hunarmandchilik va maishiy xizmat o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi o'rnida Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish loyihasi yuzasidan jamoatchilik muhokamasi e'loni

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda xususiy sektorga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zero, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ba'zi xizmatlarning xususiy sektorga o'tkazilishi nafaqat mazkur sohada ko'rsatiladigan xizmat sifatini oshishini, balki budjet mablag'larining samarali sarflanishini ham ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 563-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali barpo etish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi **"Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 720-son qarori bilan tasdiqlangan **"Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"**gi nizom 11-bandida aholining, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilarning, ulardan foydalanuvchilarning manfaatlarini inobatga olish maqsadida vakolatli davlat organining talabiga binoan DXSh loyihasi jamoatchilik muhokamalari bilan birga tayyorlanishi lozimligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi tasarrufidagi "Yosh iste'dod" milliy hunarmandchilik va maishiy xizmat o'quv ishlab chiqarish ustaxonasiga tegishli yer maydonida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi barpo etish loyihasi *(quyidagi ilova qilingan jadvalga qarang)* ishlab chiqilayotganligi ma'lum qilinadi.

Loyiha doirasida tadbirkorlik subyekti mablag'lari hisobidan **400 o'rinli** talabalar turar joyi quriladi, Bunda, xususiy sherikka talabalar turar joylarini qurish uchun subsidiya ajratilmaydi.

Loyiha doirasida xususiy sherik va budjet mablag'lari hisobiga qurilgan talabalar turar joyi binosi **30 yildan** so'ng davlat sherigiga soz holda qaytariladi.

Xususiy sherik 30 yil davomida talabalarga yotoq joy xizmati yoki amaldagi qonunlarga zid bo'lamagan xizmatlarni ko'rsatadi, talabalar turar joyini soz holda saqlash va sifatli xizmat ko'rsatish xususiy sherik hisobidan amalga oshiriladi. Yotoq joy uchun talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov miqdori xususiy sherik tomonidan belgilanadi. Loyiha joylashuvi aniq koordinatlari – 39°46'40"N 64°26'14"E



Mazkur loyiha yuzasidan fikr-mulohazalaringiz mavjud bo'lgan taqdirda, 2025-yil 24-oktabrga qadar quyidagi elektron manzillarga yuborishingiz mumkin:

1. Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi:

Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Alpomish ko'chasi 45-A uy.

Elektron pochta manzili: [e-mail: otfiv-buxoro@edu.uz](mailto:otfiv-buxoro@edu.uz)

Telefon raqami: (+998) 65-222-01-59

2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

100095, Toshkent shahri Talabalar ko'chasi 7-uy.

Elektron pochta manzili: devonxona@edu.uz

Telefon raqami: 55 520-08-08

**Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi binosini loyihalashtirish,
qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarishni tashkil etish
loyihasi to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Asosiy ko'rsatkichlar	Ma'lumotlar
1.	Loyihaning nomi	Buxoro viloyati, Buxoro shahar, Buxoro ko'chasi 5-uyda joylashgan Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi tasarrufidagi "Yosh iste'dod" milliy hunarmandchilik va maishiy xizmat o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi o'rnida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi faoliyatini tashkil etish
2.	Loyiha taraflarining nomi: Davlat sherigi: Xususiy tashabbuskor:	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi "DARIKO" Mas'uliyati cheklangan jamiyati
3.	Loyihaning faoliyat yo'nalishi	Buxoro viloyatida tahsil olayotgan talabalar turar joy bilan ta'minlanadi.
4.	Loyihaning joylashgan manzili	Buxoro viloyati, Buxoro shahar, Buxoro ko'chasi 5-uy. "Yosh iste'dod" milliy hunarmandchilik va maishiy xizmat o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi
5.	Loyihani amalga oshirish muddati	3 yil.
6.	Loyihaning amal qilish muddati	30 yil.
7.	Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tariflari	Talabalarga turar joyda yashagani uchun oyiga 340,0 ming so'm
8.	Loyihaning umumiy qiymati	25 478,0 mln so'm
9.	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi va turlari	Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi tasarrufidagi "Yosh iste'dod" milliy hunarmandchilik va maishiy xizmat o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi hududidan 0,44 ga yer maydoni vaqtincha foydalanishga beriladi.